

**YURTIMIZDA BILVOSITA SOLIQLAR MA'MURCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISHNI TAHLILI**

Usmonova Nilufar Boboxonovna
Fiskal instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va bilvosita soliqlarning tutgan o'rnini, aholining soliq ma'murchiligi bo'yicha savodxonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste'molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag'batlantirishga asoslangan ma'murchilikni takomillashtirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji, soliq ma'murchiligi, soliq strategiyasi, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq, byudjet, soliq hisoboti, soliq stavkasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены налоговая система Республики Узбекистан и роль косвенных налогов, повышение налоговой грамотности населения, поддержка предпринимательства, создание равной конкурентной среды и гарантирование прав потребителей, а также скрытая экономика. подчеркивается улучшение управления, основанное на содействии активному участию широкой общественности в сдерживании.

Ключевые слова: налоговые поступления, акциз, налог на добавленную стоимость, таможенная пошлина, налоговое администрирование, налоговая стратегия, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налог, бюджет, налоговый отчет, налоговая ставка.

Abstract: In this article, the tax system of the Republic of Uzbekistan and the role of indirect taxes, increasing the tax administration literacy of the population, supporting entrepreneurship, creating an equal competitive environment and guaranteeing the rights of consumers, and the hidden economy The improvement of administration based on the promotion of active participation of the general public in curbing is highlighted.

Keywords: tax revenue, excise tax, value added tax, customs duty, tax administration, tax strategy, analysis, optimization, tax benefits, tax, budget, tax report, tax rate.

Kirish: Xalqaro amaliyotda bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini raqamlashtirish, raqamli soliq, raqamli moliyaviy aktivlarni qo'shilgan qiymat solig'iga tortish, ushbu soliqlarning soliq naoratini natijaviyligini tahlil qilish masalalari bu borada dolzarb tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Bilvosita soliqlar ma'murchiligi takomillashtirishni yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

N.A. Soloveva o‘zining ilmiy ishlarida oldingi ilmiy ishlarni tahlil qilgan holda bevosita va bilvosita soliqqa tortishning xususiyatlarini qayd etgan. Soliqqa tortishning bevosita va bilvosita turlarining afzalliklari va kamchiliklarini aks ettiruvchi asosiy qoidalar [1].

T.A. Barxatova va Z.P. Kuznesovalar bevosita va bilvosita soliqlarni ulushlarini optimallashtirishning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: Bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbati byudjet daromadlarini shakllantirishning mavjud usullaridan (fiskal yoki tartibga soluvchi) foydalanish imkoniyatini aniqlash imkonini beradi. Bevosita va bilvosita soliqlarni ulushlarini to‘g‘ri aniqlash davlatning samarali soliq siyosatini ishlab chiqishga yordam beradi [2].

I.A. Mayburov va A.M. Sokolovskayalarning fikricha soliqlar qayta tiklash darajasiga ko‘ra bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. Bevosita soliqlar - bu juda kam qayta tiklanadigan soliqlar bo‘lib, ular bevosita soliq to‘lovchining daromadi yoki mulkidan olinadi [3].

E. Gadoev, N. Qo‘zieva, N. Ashurova, J. O‘rmonovlar «soliqlarni bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linishi bo‘yicha quyidagilarni e‘tirof etishgan, soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. Bevosita soliqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq to‘lovchining o‘zi to‘laydi, ya‘ni soliqni huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi deb fikir yuritganlar[4].

M.M. Shadurskaya bilvosita soliqlarga to‘xtalib, “Bilvosita soliqlar -bu tovarlar va xizmatlar tarifiga qo‘yilgan qo‘shimcha narx ko‘rinishidagi soliqdir” deb ta‘rif bergan [5].

A.A. Krivosheeva o‘zining ilmiy ishlarida bilvosita soliqlarning ahamiyatini quyidagicha e‘tirof etgan: bilvosita soliqlar aniq fiskal va tartibga solish funksiyasiga ega. Bilvosita soliqqa tortish tizimi g‘aznaga tushumlarni jalb qilishning eng qulay shakli bo‘lib, katta summalarni tez va muntazam ravishda olish imkonini beradi. U iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatini, ya‘ni ishlab chiqarishni u yoki bu yo‘nalishda rag‘batlantirish yoki cheklash hamda iste‘molni tartibga solish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi va shu bilan birga iqtisodiy jarayonlarga tez javob berish imkonini beradi [6].

A. Juraev, Sh. Toshmatov, O. Abduraxmanovlar bilvosita soliqlar tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliqlar kirishligini e‘tirof etishgan [7].

M. S. Ishina bilvosita soliqlarning tartibga solish funksiyasigi alohida e‘tibor bergan holda quyidagilarni takidlaydi. Soliqlarning tartibga solish funksiyasining o‘ziga xos xususiyati ularning iqtisodiyotga bilvosita ta‘siri bilan belgilanadi: soliq siyosatini amalga oshirishdan iqtisodiyotda rejalashtirilgan natijani olish uchun ma‘lum vaqt kerak bo‘ladi. Bilvosita soliqlarning tartibga solish salohiyati, birinchi navbatda, iste‘mol tarkibiga va u orqali ishlab chiqarishga ta‘sir qilish qobiliyatidadir [8].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda fiskal siyosatni hamda soliqqa tortish ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, byudjet daromadini shakllantirishda bevosita va bilvosita soliqlar ulushlarini optimal nisbatini ta‘minlashda ma‘lum ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror o‘shishini ta’minlashda iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan fiskal siyosatining ahamiyatini alohida e’tirof etish lozim. Mamlakatimizda mustaqillik yillari davomida ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan soliq siyosati shakllantirildi va yanada takomillashib bormoqda. Xususan:

O‘zbekiston Respublikasida 2019-2022-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida tahlili¹ (mlrd.so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami		112165,4	132 938,0	164 680,3	201 863,7
Bevosita soliqlar		31 676,8	45 206,9	58 930,4	64 477,1
1	Foyda solig‘i	16 360,6	28 712,2	38 363,3	37 649,9
2	Aylanmadan soliq	1 988,7	1 353,9	1 649,4	2 512,7
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 668,5	15 140,8	18 917,7	24 284,5
Bilvosita soliqlar		46 427,2	46 428,4	56 290,5	71 390,2
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	33 809,8	31 177,4	38 439,0	52 189,4
2	Aksiz solig‘i	10 314,7	11 697,3	13 086,6	13 455,0
3	Bojxona boji	2 302,7	3 553,7	4 764,9	5 745,7
Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i		19 680,7	21 257,0	23 036,4	23 912,8
1	Mulk solig‘i	2 360,2	1 974,3	2 457,3	4 015,4
2	Er solig‘i	2 313,2	2 386,7	4 082,8	5 305,9
3	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	14 692,8	16 417,1	15 811,9	13 887,4
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684,4	704,1
Yuqori daromaddan olinadigan soliq		107,9	-	-	-
Boshqa daromadlar		14 272,8	20 045,8	26 423,1	42 113,7

Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshganini ko‘rishimiz mumkin. 2019 yilda bu ko‘rsatkich 112165,4 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda esa 201 863,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu davrda bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari va mulk solig‘i bo‘yicha ham tushumlar oshishish tendensiyasi ega bo‘lgan. Bilvosita soliqlar 2019 yilda 46 427,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021 yilda 56 290,5 va 2022 yilda 71 390,2 mlrd. so‘m bo‘lgan. Tahlil davrida soliq tushumlari 2022 yilda 2019 yilga nisbatan o‘sgan bo‘lsa, bevosita soliqlarning o‘shishi 411,83 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bilvosita soliqlar bo‘yicha bu ko‘rsatkich 172,94 foizni tashkil etgan. Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosati rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagidek soliq tushumlarida bilvosita soliqlarga nisbatan bevosita soliqlar bo‘yicha tushumlar katta o‘shishga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda bilvosita soliqlar bo‘yicha ma‘muriyatchilikni takomillashtirish soliq siyosatining turli jihatlari, qonunchilik asoslari, ma‘muriy tartib-qoidalar va institutsional salohiyatni hisobga olgan holda tizimli yondashuvni talab qiladi. O‘zbekiston bilvosita soliqlar ma‘muriyatchiligini yaxshilash bo‘yicha bir necha

¹ Жадвал Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги очик маълумотлари асосида тузилди. Даромадлар 2019-2022 йил ижроси. <https://openbudget.uz/incomesView/.25.04.2023>.

qadamlarni ko‘rib chiqamiz. Bir nechta soliqlarni yagona qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) rejimiga birlashtirish orqali bilvosita soliq tizimini soddalashtirish. Soliq tuzilmasini soddalashtirish korxonalar uchun qonun hujjatlariga muvofiqlik xarajatlarini kamaytiradi va ma‘muriy samaradorlikni oshiradi. Soliq qonunlari va qoidalarini ilg‘or xalqaro tajribaga moslashtirish va muvofiqlik talablarini soddalashtirish uchun qayta ko‘rib chiqildi. Noaniqlikni kamaytirish va soliq to‘lovchilarning tushunishini kuchaytirish uchun soliq qoidalari, ta‘riflari va tartib-qoidalarini takomillashtirdi. Soliq ma‘lumotlarining shaffofligi, aniqligi va o‘z vaqtida bo‘lishini yaxshilash uchun elektron hisob-fakturalar va real vaqt rejimida hisobot berish tizimini joriy etildi. Elektron hujjat topshirish, to‘lovlarni qayta ishlash va ma‘lumotlarni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash uchun axborot texnologiyalari infratuzilmasini yangilandi. Texnologiyalar va ma‘lumotlarni tahlil qilish vositalaridan samarali foydalanish uchun soliq xodimlarini o‘qitish va salohiyatini oshirildi. Soliq majburiyatlari, huquqlar va mavjud imtiyozlar haqida xabardorlikni oshirish uchun soliq to‘lovchilarni ta‘lim va tushuntirish dasturlarini kuchaytirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Auditni tanlash mezonlari, nizolarni hal qilish mexanizmlari va jarima solishni o‘z ichiga olgan soliq ma‘muriyatchiligi bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar va tartiblarni e‘lon qilinmoqda. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashish, jumladan, qonun hujjatlariga rioya qilmaslik uchun jazo choralarini kuchaytirish, kontrabanda va noqonuniy savdoning oldini olish bo‘yicha transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish va yuqori xavfli tarmoqlarga nisbatan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelimoqda. Bundan tashqari soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish samaradorligini monitoring qilish uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari va ko‘rsatkichlarini belgilash hamda keyinchalik takomillashtirish uchun yo‘nalishlarni aniqlash va shunga muvofiq siyosat va strategiyalarni o‘zgartirish uchun muntazam baholash o‘tkazilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston bilvosita soliqlar ma‘muriyatini kuchaytirishi, daromadlar yig‘ilishini kuchaytirishi, qonunchilikka rioya etilishini rag‘batlantirishi hamda barqaror iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun yanada qulay muhit yaratadi.

Bundan tashqari, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bazasini aniqlashning qiyosiy-huquqiy tahlili har bir mamlakat QQS bazasini qanday belgilashi va qo‘llashini tushunish uchun turli yurisdiksiyalardagi huquqiy baza va ma‘muriy amaliyotlarni o‘rganish va solishtirishni o‘z ichiga oladi. QQS bazasi ta‘riflaridagi o‘zgarishlarni aniqlash, ularning daromadlarni shakllantirishga ta‘sirini baholash yoki muvofiqlik muammolarini tushunish kabi tahlilini aniqlash. Jumladan, siz solishtiradigan yurisdiksiyalarni va QQS bazasining o‘ziga xos jihatlarini (masalan, soliqqa tortiladigan operatsiyalar, imtiyozlar, chegirmalar) aniqlash. Turli hududlar, iqtisodiy tuzilmalar va soliq siyosati maqsadlarini ifodalovchi turli QQS tizimlariga ega yurisdiksiyalarni tanlash. QQS stavkasi, ro‘yxatga olish chegarasi, muhim tovarlar va xizmatlarni va ma‘muriy amaliyotlar ko‘rib chiqish. Muayyan sohalar, operatsiyalar yoki soliq to‘lovchilar uchun qo‘llaniladigan har qanday maxsus qoidalar yoki imtiyozlarni tahlil qilish. QQS bazasi qanday belgilanishi va aniqlanishini tushunish uchun har bir yurisdiksiyaning QQS qonunlari, qoidalari va ma‘muriy yo‘riqnomalarini ko‘rib chiqish. Soliq solinadigan operatsiyalarning huquqiy ta‘riflarini, ozod qilingan ta‘minot va QQSni ro‘yxatdan o‘tkazish, topshirish, to‘lash

va muvofiqlikni tekshirish bilan bog‘liq ma‘muriy amaliyotlarni ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Har bir yurisdiksiyada QQS bazasini ishlab chiqish va joriy etishga ta‘sir qiluvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillarni biznesning raqobatbardoshligiga, iste‘molchilarning xatti-harakatlariga, daromadlarni taqsimlashga va davlat daromadlariga ta‘sirini baholash lozim. Ushbu bosqichlarni bajarish orqali QQS bazasini aniqlashning keng qamrovli qiyosiy-huquqiy tahlilini o‘tkazish mumkin, bu esa dalillarga asoslangan siyosat qarorlarini xabardor qilishi va yanada samarali va adolatli QQS tizimlariga hissa qo‘shishadi. Soliq ma‘murchiligini yanada takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘laqonli zanjirini yaratish, coliq to‘lovchilarga sifatli soliq xizmatlari ko‘rsatish, soliq ma‘murchiligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni kamaytirish maqsadida yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kirmaydigan QQS hisoblangan soliq to‘lovchilarga markazlashgan holda xizmat ko‘rsatish DSIlardan DSBlarga o‘tkazilmoqda.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasida 1 124 ta soliq to‘lovchilarning ma‘muriyatchiligi yuritib kelinmoqda. Ular tomonidan 2023-yilning oxirgi choragida davlat byudjetiga 30 974,6 mlrd so‘m (respublika tushumining 62,1 foizi) soliqlar to‘langan bo‘lib, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘muriyatchiligi markazlashgan holda yuritilishi o‘z samarasini berdi. Soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini yanada oshirish maqsadida soliq to‘lovchilarning byudjetga soliq tushumidagi salmog‘i katta ekanligini inobatga olib, 2020-yilda 142 929 ta QQS to‘lovchilariga xizmat ko‘rsatish tuman (shahar) DSIlardan DSBlarga o‘tkazildi. QQS to‘lovchilari soni yillar kesimida o‘shish kuzatilmoqda. Xususan: 2021-yilda 113 566 ta, 2020-yilga nisbatan 28 085 taga (32,9%), 2022-yilda 143 034 ta, 2021-yilga nisbatan 29 468 taga (25,9%), 2023-yilda 173 417 ta, 2022-yilga nisbatan 30 383 taga (21,2%) ko‘paydi. Shuningdek, mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashni ta‘minlashga qaratilgan barcha tuman va shaharlarda “Mahalla byudjeti” tizimi amaliyotga joriy etildi (PF-209-son, 21.12.2023 y.). Bu esa tuman (shahar) DSI tomonidan aylanmadan olinadigan soliq va jismoniy shaxslarning yer-mulk solig‘i ma‘murchiligini ta‘minlash imkoniyatini yaratadi. QQS to‘lovchisi hisoblangan soliq to‘lovchilarga esa soliq xizmatlari xududiy soliq boshqarmalari tomonidan ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, Davlat soliq xizmati organlari tomonidan 2022-yilning o‘tgan davrida alkogol mahsulotlarining realizatsiyasi bilan shug‘ullanayotgan hamda litsenziyasiz spirt ishlab chiqarayotgan tadbirkorlik subyektlari tahlil qilindi va bir qator nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

Alkogol mahsulotlarining chakana savdosi bo‘yicha:

Toshkent viloyati davlat soliq boshqarmasi tomonidan alkogol mahsulotlari chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi “Nozimaxon-Nur” va “Di-Crystal Center” mas’uliyati cheklangan jamiyatlarining 5 ta shahobchasida sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazildi va tekshiruvda 3 494 dona 49,9 mln.so‘mlik aksiz markasi qalbaki bo‘lgan alkogol mahsulotlari olindi. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi tomonidan alkogol mahsulotlari chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi “Erkin Halol Chorvador” “Real Invest Biznes” mas’uliyati cheklangan jamiyatlarining 2 ta shahobchasida sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazildi va tekshiruvda 445 dona 9,0 mln.so‘mlik aksiz markasi qalbaki bo‘lgan alkogol mahsulotlari olindi. Xorazm viloyati davlat soliq

boshqarmasi tomonidan alkogol mahsulotlari chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi "O'zbekiston Savdo Markazi", "Yormish Savdo Market", "Turkman Sharob", "Xiva Sayot Sifat Savdo" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining 4 ta shahobchasida sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazildi va tekshiruvda 1 435 dona 35,8 mln.so'mlik aksiz markasi qalbaki bo'lgan alkogol mahsulotlari olindi. Surxondaryo viloyati davlat soliq boshqarmasi tomonidan alkogol mahsulotlari chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi "Young Rich Man", "Jayhun Sharob", "Maftuna Termiz Fayz", "Eldor-Ezoza-Elyor", "Erkin Termiz Sharob" "Oybekali Sharob", "O'ktam Shabnam", "Amber Stone", "Jasurbek Bobonazarovlar" "Janub Shirin Sharbati", "O'tkir-Sher-San" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining 18 ta shahobchasida sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazildi va tekshiruvda 2 543 dona 59,4 mln.so'mlik aksiz markasi qalbaki bo'lgan alkogol mahsulotlari olindi.

Litsenziyasiz spirt ishlab chiqarish bo'yicha:

Toshkent viloyati davlat soliq boshqarmasi tomonidan noqonuniy texnik etil spirtini ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan "Eva Gold Technology", "Ran Tritex" va "Singlemix Industry" korxonalarida sayyor soliq tekshiruvchi o'tkazildi. Tekshiruv yakuni bilan "Eva Gold Technology" korxonasidan 75,0 mln.so'mlik 5 000 litr texnik etil spirti, "Ran Tritex" korxonasidan 24,8 mln.so'mlik 5 000 litr texnik etil spirti hamda "Singlemix Industry" korxonasidan 185,1 mln.so'mlik 27 100 litr texnik etil spirti jami 284,9 mln.so'mlik 37 100 litr texnik etil spirti daliliy ashyo sifatida qonuniy chora ko'rilishi uchun olingan.

Tamaki mahsulotlari bozorini tahliliy tahlil qilisak. Asosiy parametrlar (sotish hajmi, import, quvvatlardan foydalanish va h.k.) ko'rsatkichlarini tahlil qilish sanoatning rivojlanishiga omillar majmuasining ta'sirini va davlat byudjetiga soliq tushumlarini baholash imkonini beradi. Sigaret mahsulotlaridan soliq tushumlari 01.01.2024 yil holatiga sanoat korxonalaridan jami soliq tushumlari. O'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan 10,2 foizga (267,8 mlrd.so'm) oshib, 2898,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. Sigaret mahsulotlariga aksiz solig'i oshirildi 14,4 foizga (288 mlrd.so'm) oshib, 2286,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga, "UZBAT A.O." QK ulushi. jami aksiz solig'i bo'yicha sanoat bo'yicha tushumlar 2,1 foiz punktga kamaydi. va tuzilgan 79,7 foizi (1 821,9 mlrd. so'm), "bu ko'rsatkich 2,2 foiz punktga oshdi. so'mni tashkil etdi va 20,3 foizga (464,4 mlrd. so'm) yetdi Toshkent Tobakko" MchJga aksiz to'lanadigan mahsulotlar turlari kontekstida aksiz solig'i ulushi sigareta mahsulotlari uchun 15,1% ni tashkil qiladi. Sanoat samaradorligi ko'rsatkichlarida Sigaret ishlab chiqarish hajmi 13 044,1 million dona sigaretani tashkil etdi. Jumladan, 2023-yilda "UZBAT A.O." qo'shma korxonasida. 354,7 mln dona isitiladigan tamaki tayoqchalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Xulosa va takliflar.

Soliq tushumlarida bilvosita soliqlarining ulushlarining mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashi bo'icha xulosa qilish uchun xalqaro amaliyotni o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek bilvosita soliqqa tortishning optimallashtirish har mamlakatning iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqish zarurdir. Tadbirkorlik sub'ektlari umumiy maydoni bir ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yer uchastkalariga va (yoki) binolar hamda inshootlarga bo'lgan mulkiy huquq olinganda ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 7 va 8-bandlarida ko'rsatilgan

solliqlarni to'lashni taqdim etilgan xabarnoma asosida xabardor qilgan holda va garov ta'minotisiz olti oy muddatga kechiktirish huquqiga ega. Bunda kechiktirilgan soliqlar summasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer uchastkalarining, binolarning va inshootlarning qiymatidan va (yoki) maydonlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan soliqlar miqdorida belgilanadi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Соловьева Н.А. Соотношение прямых и косвенных налогов в налоговой системе государства и тенденции его изменения // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017. Том 7. № 1А. С. 216-226.
2. Бархатова Т.А., Кузнецова З.П. Роль прямых и косвенных налогов в формировании бюджетов бюджетной системы Российской Федерации. Бухгалтерский учет. Налоги и налогообложение. 2013.
3. Майбуrows И.А. Теория налогообложения./ И.А.Майбуrows, А.М. Соколовская. – М.: ЮНИТА-ДАНА, 2020.-591 с.
4. Юридик шахсларни соликка тортиш. Дарслик. / Э.Гадоев, Н. Кўзиева, Н.Ашурова, Ж.Ўрмонов. Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2013.-616 б.
5. М.М.Шадурская, Е.А.Смородина, Т.В.Бакунова; Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. Екатеринбург: 2019. 207 стр.
6. Кривошеева, А. А. Исторические и современные аспекты косвенного налогообложения / А. А. Кривошеева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 23 (365). — С. 382-384. — URL: <https://moluch.ru/archive/365/82056/> (дата обращения: 29.04.2023).
7. Солиқлар ва солиққа тортиш: Ноиктисодий бакалаврият таълим йуналишлари учун ўқув қўлланма / А. Жураев, Ш. Тошматов, О. Абдурахманов; Э. Ф. Гадоевнинг умумий таҳрири остида; — Тошкент: «NORMA» нашриёти, 2009.- 184-б.
8. Ишина, М.С. Налог на добавленную стоимость как инструмент распределения добавленной стоимости между экономическими субъектами : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.10 / Ишина Марианна Станиславовна. – М., 2009. – 198 с
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.
10. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси <https://lex.uz/docs/4674902>